

OYBEKNING “NAVOIY” ROMANI TARJIMALARIDA TABIAT TASVIRINING QAYTA AKS ETISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460915>

Kamola RASULOVA,

TDSHU 2-kurs magistranti,

Toshkent. O‘zbekiston.

Tel: +998 93 386 63 05;

E-mail: rasulovakamola0120@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada atqqli o‘zbek adibi Oybekning “Navoiy” romani tarjimalarida tabiat tasvirining qayta aks etishi, romanning iste’dodli turk tarjimonlari Ahsan Botur va Shuayip Qoraqosh tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar misolida ko‘rib chiqiladi.*

Tayanch so‘zlar: roman, badiiy tarjima, peyzaj, tasvir, ko‘chma ma‘no.

Аннотация. *В данной статье рассматривается отражение образа природы в переводах романа известного узбекского писателя Айбека “Наваи” в турецком языке, которая была переведён талантливыми переводчиками Ахсан Ботур и Шуайип Каракаш.*

Ключевые слова: роман, художественный перевод, пейзаж, образ, метафорическое значение.

Abstract. *The present article, the reflection of the image of nature in the translations of the famous Uzbek writer by Aybek’s novel “Navai” in Turkish translations made by talented translators Akhsan Botur and Shuayip Karakash.*

Key words: novel, literary translation, landscape, image, proverb, metaphorical meaning.

Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki tabiat manzarasi tasvirida ijodkorning so‘z boyligi, uni qo‘llash darajasi, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi. Yuqoridagi parchada adib atrof-muhitning go‘zalligini xuddi musavvirdek qalamga oladi. Undagi har bir detal muayyan maqsadga qaratiladi. Kitobxon uni o‘qir ekan, vaziyatni aniq-tiniq ko‘z oldiga keltira oladi. Buni boshqa tilga o‘giruvchi tarjimon ham muallif uslubini to‘laqonli qayta yaratish, parchani asliyat ohangini saqlangan holda

o‘g‘irishga harakat qiladi. Turli sifatlash, o‘xshatish va boshqa turli badiiy san’atlarni qo‘llashga urinadi.¹

Badiiy asarda muallif o‘z muddaosini ro‘yobga chiqarish uchun tasviriy va ifodaviy vositalardan foydalanadi. Asardagi tabiat manzaralari kitobxonning biror narsa haqida tasavvur hosil qilishi, muayyan tuyg‘uni his etishi, ko‘rish, eshitish mumkin bo‘lgan narsa va obrazlarni inson ongida hosil qiluvchi unsurlar tasviriy vositalar hisoblansa, asarda so‘z va iboralarning turli ma’no tovlanishlari, majoziy xususiyatlari, voqea-hodisalarni turli yo‘llar bilan ifodalash usullari-ifodaviy vositalar sanaladi. Badiiy tarjimada tasvir vositalarining qayta yaratilishi va bunda so‘z tanlash muammosi tarjimondan zo‘r mahorat talab etadi. “Tarjimon – asarni boshqa tilda, ya’ni ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o‘ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so‘z tanlaydi, bu so‘zlar ma’nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to‘laroq ifodalash tashvishida yonadi”² – deb yozadi G‘aybullay Salomov.

Yozuvchi asar yaratayotganida har bir hodisa, tabiat manzarasi, umuman, voqelikka o‘z nazari bilan qaraydi. U asar g‘oyasidan kelib chiqib, mos detal tanlaydi va o‘sha tanlangan detal orqali asar mazmunida salmoqli o‘rin tutgan fikrni ifodalaydi. Masalan, badiiy asarlarda tabiat tasviri berilayotganda ijodkorlar tez-tez murojaat qiladigan yomg‘ir tasvirini har kim o‘zgacha, o‘z kayfiyatiga uyg‘un, vaziyatni hisobga olgan holda beradi: “mayin, beg‘ubor yomg‘ir tomchilari”, “hayotbaxsh yoqimli yomg‘ir”, “bahor yomg‘iri” va shunga o‘xshash tabiat hodisalari inson ruhiy holatining ijobiy tomonlari, hayotning go‘zalligi, mazmuni, ko‘klam tarovatini tarannum etsa, “qora bulut”, “chaqmoq”, “sovuq yomg‘ir tomchilari”, “kuchli jala” kabi tasvirlar inson ruhiyatidagi salbiy holatlar, qo‘rquv, ichki g‘alayon, xavf-xatar yoki tushkunliklardan darak beradi. Bunday tasvirlarda san’atkor tabiat hodisasi bo‘lgan yomg‘irni asar ixtiyoriga bo‘ysundiradi, asar personajlari yoki bosh qahramonning ichki

¹ Хамидов. Х. Ойбекнинг “Навоий” романида лексик-фразеологик бирликлар турк тилига таржимасининг хусусиятлари. SHARQSHUNOSLIK. (Илмий журнал) № 4, 2020. 50-59 б.

² Salomov G‘. Adabiy an‘ana va badiiy tarjima.-T.: Fan, 1980. B.11.

kechinmalari, voqelikka munosabatini shu tasvir vositasida ifodalaydi va bunda san'atkorning o'ziga xos uslubi namoyon bo'ladi³.

"Navoiy" romanidagi shoir yashagan Hirot shahrining tabiati, atrof-muhit go'zalligi Gavharshod madrasasi fonida bundan sakson yil ilgari sof o'zbek adabiy tilida mahorat bilan aks ettiriladi:

"Bahor quyoshi ko'kning tiniq feruzasida Hirotning Gavharshod madrasasining haybatli gumbazi ustida porlar, gumbazning azamat peshtoqlarining naqshlari shu'lalarda jonli, bir chamanzor kabi turli-tuman olov ranglar chaqnatar, kabutar dam uchib, dam sirpanib qo'nib, gumbaz tevaragida quvonch bilan inoq o'ynashar edi. Bir tomoni xonaqoh, uch tomoni katakcha-hujralar bilan o'ralgan madrasaning keng, tekis, chorburchak sahnidan kecha shovdirab o'tgan yomg'ir ko'zga ilinirilmas bug' bo'lib havoga ko'tarilmoqda edi" [4, 6].

Yozuvchi tomonidan juda go'zal tarzda ta'riflangan mazkur tabiat tasviri orqali muallifning so'z tanlashda mohir ekanligini, har bir detal muayyan maqsadga qaratilganligini bilishimiz mumkin.

Badiiy asarda muallif o'z muddaosini ro'yobga chiqarish uchun tasviriy va ifodaviy vositalardan foydalanadi. Asardagi tabiat manzaralari kitobxonning biror narsa haqida tasavvur hosil qilishi, muayyan tuyg'uni his etishi, ko'rish, eshitish mumkin bo'lgan narsa va obrazlarni inson ongida hosil qiluvchi unsurlar tasviriy vositalar hisoblansa, asarda so'z va iboralarning turli ma'no tovlanishlari, majoziy xususiyatlari, voqea-hodisalarni turli yo'llar bilan ifodalash usullari-ifodaviy vositalar sanaladi. Badiiy tarjimada tasvir vositalarining qayta yatatilishi va bunda so'z tanlash muammosi tarjimondan zo'r mahorat talab etadi. "Tarjimon – asarni boshqa tilda, ya'ni ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o'ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so'z tanlaydi, bu so'zlar ma'nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to'laroq ifodalash tashvishida yonadi"⁴ – deb yozadi G'aybullar Salomov.

Endi yuqoridagi jumlaning turkcha tarjimasini **Ahsan Botur** **tarafidan ag'darilgan qismiga e'tibor qaratamiz:** *Bahar gūneši, göğün tertemiz maviliğinde Herat'ın Gevherşâd medresesinin heybetli kubbesi*

³ Hamidov X. Badiiy asar tarjimasida tabiat tasvirining berilishi // Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to'plami №9). – Toshkent., 2012 B. 75-77.

⁴ Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima.-T.: Fan, 1980. B.11

üstünde parlıyor; kubbenin muhteşem revaklarının nakışları gün ışığında canlı, havai bir bahçe gibi rengârenk alev renkler saçıyor; güvercinler kâh uçup, kâh süzülerek konup, kubbe çevresinde, neşe içinde oynaşıyorlardı. Bir tarafı hanekâh, üç tarafı küçük hücrelerle çevrili medresenin geniş, pürüzsüz, dört köşe avlusundan gece şakırtıyla geçen yağmur, belli belirsiz bir buğu halinde havaya yükselmektedir [6, 5].

Mazkur parchada tarjimon muallif uslubidan chiqmagan holda turk tiliga tabiat tasvirini shakl va mazmun birligiga rioya qilgan holda o‘giradi. Badiiy asar tarjimasida esa shakl va mazmun birligi katta ahamiyatga ega.

Asar personajlari yoki bosh qahramonning ichki kechinmalari, voqelikka munosabatini shu tasvir vositasida ifodalaydi va bunda san’atkorning o‘ziga xos uslubi namoyon bo‘ladi⁵.

Shuayip Qoraqosh tarjimasida esa quyidagicha: “BAHAR gūneşi, göğün tertemiz maviliğinde Herat’ın Gevherşâd medresesinin heybetli kubbesi üstünde parlıyor; kubbenin muhteşem revaklarının nakışları gün ışığında canlı, havaî bir bahçe gibi ren garenk alev renkler saçıyor; güvercinler kâh uçup, kâh süzülerek konup, kubbe çevresinde, neşe içinde oynaşıyorlardı Bir tarafı ha nekâh’, üç tarafı küçük hücrelerle çevrili medresenin geniş, pürüz süz, dört köşe avlusundan gece şakırtıyla geçen yağmur, belli belir siz bir buğu hâlinde havaya yükselmekteydi” [7, 31].

“Tabiat tasviri muhim bir voqea yoki hodisaning ro‘y berishidan oldin ko‘rsatilishining asosiy maqsadi kitobxonning aks ettirilayotgan voqeani oldindan o‘z tasavvurida jonlantirishiga ko‘mak berishdir. Tarjimon esa, ana shunday manzarani tarjima tili va uni o‘qiydigan kitobxon yashayotgan mamlakat tabiati tasvirini hisobga olgan holda ish tutishi, tarjima qilinayotgan asarning mazmuni va shakliga zarar yetkazmasdan o‘girihi kerak bo‘ladi”⁶.

Masalan, “Navoiy” romanida muallif tomonidan mohirona tasvirlangan tabiat tasvirini tarjimonlar Ahsan Botur va Shuayip Qoraqosh tomonidan qanday o‘giriqlanligini kuzatishimiz mumkin:

Asliyat: Osmonning tiniq zangorisida to‘lin oy nur o‘tovini tikkan. Sanoqsiz yulduzlarning muazzam, ulug‘vor ohangida kecha jimgina

⁵ Hamidov X. Badiiy asar tarjimasida tabiat tasvirining berilishi // Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami №9). – Toshkent ., 2012 B. 75-77.

⁶ Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 86.

pinakka ketgan. Yupqa oy nuriga o‘ralgan bog‘chalar kuzning salqin nafasidan yengil titraydi [4, 56].

Ahsan Botur tarjiması: *Gökyüzünün parlak semasında dolunay nur otağını dikmiş; sayısız yıldızların muazzam ve ulu âhenginde gece sessiz bir uykuya çekilmiş. Hafif ay ışığıyla kucaklaşan bağlar sonbaharın serin nefesiyle inceden titremekte [5, 53].*

Shuayip Qoraqosh tarjiması: *Gökyüzünün tertemiz maviliğinde dolunay nur otağını dikmiş. Sayısız yıldızların muazzam, muhteşem âhenginde gece, sessiz bir uykuya çekilmiş. Şeffaf ay nuruna bürünmüş bahçeler, güz mevsiminin serin nefesinden hafifce titriyordu [6, 73].*

Tarjimada peyzaj tasviri spetsifikasini, muallif kuzatuvchanligini saqlab qolish o‘ta muhim. Zotan “peyzaj qahramonlar tuyg‘ulariga bevosita bog‘liq bo‘lib, kitobxonning darrov tasvirlanayotgan vaziyatga kirishib ketishiga yordam beradi.”⁷

Oybek mazkur tabiat tasvirini shu darajada go‘zal tasvirlaganki yozuvchining mahoratiga qoyil qolmaslikning aslo iloji yo‘q. Asliyatni tarjimada to‘laqonli berish esa mutarjimning ham tasavvuri qay darajada ekanligini belgilab beradi. Asliyatdagi tasvirni to‘la to‘kis aks ettira olgan tarjimon, oldiga qo‘yilgan vazifani uddalay olgan deyishimiz mumkin.

Mazkur mulohazalarimizni dalili sifatida yuqoridagi tabiat tasvirini ikki tarjimon tomonidan ag‘darilgan jumllarini tahlil ostiga olsak, tarjimonlarni asosan so‘zma-so‘z tarjima qilganliklarini inobatga olganda tarjima asliyatdagi ma‘noni bera olgan deyishimiz mumkin.

Peyzaj yozuvchining uslubi bilan bog‘liq ravishda turli vazifalarni o‘taydi. Odatda yozuvchi yaratgan peyzaj va intererning har bir detali asarda turli g‘oyaviy – badiiy vositani bajaradi. Shu sababli, peyzaj – tabiat, joy tasvirlari badiiy asarning tarkibiy qismi sifatida, asar qahramonlarining ruhiyatini, hissiyotlarini to‘laroq ifoda etishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Binobarin, peyzaj qahramonlar dunyosini, ular yashayotgan muhitni tasvirlashning muhim vositasi sanaladi. Bu esa, o‘z o‘rnida insonni har tomonlama kamol toptirish, unda estetik didni

⁷ Владимирова Н., Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. –Т.: Фан, 1957, – 62 с.

shakllantirish, san'atni to'g'ri qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, shaxsni estetik tarbiyalashning muhim omillaridan biri sanaladi.⁸

Romanda tasvirlangan tabiat tasvirini tarjimada ham aynan shunday go'zal so'zlar bilan bera olish juda muhim. Quyida yana bir peyzaj tasvirini tahlil qilsak:

Asliyat: *Bahorning gullagan chog'i... Baland va dilbar qomat sarv og'ochlari, ko'rkam mevazorlar, turli-tuman gullar bilan yashnagan keng chamanzorlar ichida katta-kichik ko'shklar allaqanday xayoliy manzara yasaydi. Quyoshda ko'shklarning naqshlari xuddi jonli chamanlar bilan raqobat qilishgandan, havoni rangli shu'lalar mavji bilan to'ldiradi. Uzoqdan, shabada yengil titratgan daraxtlar orasidan boqqan kishi, ko'shk devorlarini gulzorning davomi deb o'ylaydi... [4]*

Ahsan Botur tarjiması: *Baharın en güzel günleri.. Uzun ve nârin servi ağaçları, görkemli meyvelikler, envâ-i tür güllerle donatılmış geniş çimenlikler içindeki irili ufaklı köşkler insanı romantik bir atmosfere çekip götürüyordu. Köşklerin nakışları güneş altında sanki şu gül bahçeleriyle yarışa girmiş gibi çevreyi renk cümbüşüne boğuyordu. Uzaktan, rüzgârın tesiriyle yal palanan ağaçlar arasından bakan bir kişi köşk duvarlarını gül bahçelerinin bir devamı sanırdı [5].*

Shuayip Qoraqosh tarjiması: *Baharın çiçeklendiği bir zaman... Yüksek ve güzel boylu servi ağaçları, görkemli meyve bahçeleri, çeşitli çiçeklerle daha görkemli bir hal alan geniş çimenlikler içindeki büyük küçük köşkler, sanki hayali bir manzara oluşturunuyordu. Güneşte köşklerin nakışları, tipki canlı gül bahçeleri ile rekabet edercesine havayı renkli ışıkların cilveleriyle dolduruyordu. Uzaktan, esintinin hafifçe titrettiği ağaçlar arasından bakan kişi, köşkün duvarlarını gül bahçesinin devamı diye düşünüyordu... [6]*

Yuqoridagi tabiat tasviri muallif tomonidan juda chiroyli tasvirlangan. Asliyatda aks ettirilgan tasvir inson tasavvurini to'laligicha qamrab, o'ylashga chorlaydi. Asarda aks etgan asliyatdagi jumalarga turkchada muqobilini topa olish tarjimondan anchagina tajribani talab qiladi. Masalan, asliyatdagi "turli-tuman gullar bilan yashnagan keng chamanzorlar ichida katta-kichik ko'shklar allaqanday xayoliy manzara

⁸ Ташпулатов Н., Методика изучения пейзажа как средства раскрытия идейного замысла и образов персонажей художественных произведений: автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Т., 1991, –3 с.

yasaydi” jumlasini tarjimon Ahsan Botur tomonidan “*envâ-i tür güllerle donatılmış geniş çimenlikler içindeki irili ufaklı köşkler insanı romantik bir atmosfere çekip götürüyordu*” deb tarjima qilingan. Asardagi voqea hodisalarda XV asr tasvirlanayotganini inobatga olgan holda “xayoliy manzara” birikmasini “romantik atmosfer” deb tarjima qilish juda noo‘rin va katta xatolikdir. Aslida tarjimon asarni tarjima qilishdan avval e‘tibor qilishi kerak bo‘lgan unsurlardan biri asarda qaysi davr tasvirlanganligidir. Ozingina e‘tiborsizlik ham tarjima asarni o‘qiyotgan kitobxonda tushunmovchilikka sabab bo‘lishi mumkin. Xuddi shu birikmani Shuayip Qoraqosh “*hayali bir manzara*” deb so‘zma-so‘z tarjima qilgan.

Tabiat tasviri aks etmagan mukammal badiiy asar bo‘lmaydi. “Badiiy asar tili inson qalbini butun murakkabliklari bilan yo‘g‘rilgan holda tabiat manzaralariga hamohang tarzda aks ettiradi”⁹.

Shunday qilib, romanda peyzajning asl matni va turkcha tarjimalarini qiyosiy tahlil etish tarjimonlarning qator yutuq va kamchiliklarini alohida ta‘kidlab o‘tishga asos beradi. Mutarjimlarning semantik muvofiqlik, giponimik, moslashtirish va perifrastik usullaridan unumli foydalangani bu yutuqlar omili bo‘lgan. Birinchi tarjimon Ahsan Boturning o‘z ona tili imkoniyatlaridan keng foydalanganligi, so‘zma-so‘z tarjimadan ko‘ra mazmunan muvofiq keluvchi muqobil so‘z va birikmalarni ishlatishga intilganligi e‘tiborga molikdir. Ikkinchi tarjimon esa aksincha aksar so‘zma-so‘z tarjimadan foydalanganligi asar tarjimasida ba‘zan ijobiy ayrim xollarda esa salbiy jahatlarni yuzaga keltirmoqda.

REFERENCES

1. Хамидов. Х. Ойбекнинг “Навоий” романида лексик-фразеологик бириклар турк тилига таржимасининг хусусиятлари. SHARQSHUNOSLIK. (Илмий журнал) № 4, 2020.
2. Salomov G‘. Adabiy an‘ana va badiiy tarjima.-T.: Fan, 1980.
3. Hamidov X. Badiiy asar tarjimasida tabiat tasvirining berilishi // Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami №9). – Toshkent ., 2012.
4. Ойбек. Навоий. Тахрир ҳайъати: Бобир Алимов ва б. – Т.: “Шарқ”, 2004.
5. Aybek, M.T. Nevai, Çev. Ahsen Batur. – İstanbul: 1995. – 447 s.
6. Aybek. Nevâyi, Roman, Türkiye Türkçesine aktarma ve İnceleme Prof. Dr. Şuayip Karakaş, Ötüken Yayınevi. –İstanbul, 2019.

⁹ Хотамов Н., Саримсоков Б., Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изохли луғати, – Т.: “Ўқитувчи”, 1983, – 375 б.

7. Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima.-T.: Fan, 1980.
8. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Фан, 1966.
9. Владимирова Н., Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. –Т.: Фан, 1957.
10. Ташпулатов Н., Методика изучения пейзажа как средства раскрытия идейного замысла и образов персонажей художественных произведений: автореф.дис. ...канд.филол.наук. – Т., 1991.
11. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изохли луғати, – Т.: “Ўқитувчи”, 1983.
12. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). Issues on translation of character speech (on the example of korean-uzbek literature). Международный журнал искусство слова, 3(4).
13. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
14. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
15. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
16. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
17. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.